

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

### **RESPUBLIKADA O'SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA**

O'simliklar karantini va himoyasi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, fitosanitar va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni yetkazib berish va xizmat ko'rsatish tizimini to'liq xususiy sektorga o'tkazish, tashqi bozorda mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish, mineral o'g'itlar va agrokimyoviy xizmatlar sifatini oshirish maqsadida:

1. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tashkil etilsin.

2. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, "O'zagrokimyohimoya" AJ va hududiy "Agrokimyohimoya" AJlar aksiyadorlarining:

"O'zagrokimyohimoya" AJ va hududiy "Agrokimyohimoya" AJlar;

Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Kimyolashtirish va o'simliklarni himoya qilish vositalarini sinovdan o'tkazish va ro'yxatga olish bo'yicha davlat komissiyasini tugatish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin;

"O'zagrokimyohimoya" AJ va hududiy "Agrokimyohimoya" AJlarni tugatish bo'yicha Respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Tugatish komissiyasi) tarkibi [1-ilovaga](#) muvofiq va uning hududiy komissiyalarining (keyingi o'rinlarda — hududiy komissiya) namunaviy tarkibi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

3. Tugatish komissiyasi raisi:

"O'zagrokimyohimoya" AJ va hududiy "Agrokimyohimoya" AJlar debitor va kreditor qarzdorliklarini belgilangan tartibda xatlovdan o'tkazib, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirsin;

"O'zagrokimyohimoya" AJ va hududiy "Agrokimyohimoya" AJlar mol-mulklari va asosiy vositalarini xatlovdan o'tkazib, O'simliklar karantini va himoyasi agentligiga (keyingi o'rinlarda — Agentlik) o'tkazish yoki belgilangan tartibda sotish choralari ko'rsin. Bunda, Agentlikka beriladigan mol-mulklarning baholangan qiymatiga mos ravishda hududiy "Agrokimyohimoya" AJlarning budjet, davlat maqsadli jamg'armalari va ajratilgan budjet ssudasi bo'yicha qarzdorliklari hisobdan chiqariladi hamda ushbu mol-mulklar

daromad (foyda) solig'ini hisoblashda soliq solish obyekti hisoblanmaydi;

mol-mulk va texnikalar talon-toroj qilinishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rib borsin.

*(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PF-42-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.03.2023-y., 06/23/42/0177-son)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

4. O'simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ushbu yo'nalishda zarur ishlov berish texnikalari, agrometeostansiyalar, biolaboratoriya jihozlari va boshqa uskunalar xarid qilinishda davlat tomonidan 2024-yil 31-dekabrga qadar qo'llab-quvvatlashning quyidagi tartibi joriy qilinsin:

*(4-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabrda PF-34-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.12.2021-y., 06/21/34/1164-son)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

a) Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi;

*(4-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son — 2022-yil 1-iyuldan kuchga kiradi)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

b) ajratiladigan kredit ta'minotining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq 2,5 mlrd so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi kafillik taqdim etadi.

*(4-bandning "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son — 2022-yil 1-iyuldan kuchga kiradi)*

5. Quyidagilar "Agrobank" ATB tomonidan:

o'simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga laboratoriyalarni tashkil etish, uskuna va texnikalarni sotib olish hamda aylanma mablag'lari uchun 200 mlrd so'mlik kredit liniyasi ochilganligi;

Qishloq xo'jaligi yo'nalishida, shu jumladan o'simliklarni himoya qilish sohasida ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, mutaxassislar va aholining bilim darajasini oshirish maqsadida "Agrobank" ATB qoshida "Fermerlar maktabi" tashkil etilganligi;

O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti va sohadagi izlanuvchilarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi innovatsion tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilganlik uchun 10 mlrd so'm miqdorida grant ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. Toshkent viloyati hokimligi va "Agrobank" ATBning Toshkent viloyatida o'simliklarni himoya qilishning kompleks xizmatlarini ko'rsatuvchi markazni (keyingi o'rinlarda — Namunaviy markaz) tashkil etish bo'yicha buyurtmachi etib "Agrobank" ATBni belgilash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari zimmasiga "Agrobank" ATB bilan birgalikda Namunaviy markaz tajribasi asosida tadbirkorlarning o'simliklarni himoya qilishning kompleks xizmatlarini ko'rsatuvchi biznes loyihalarini tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, bank krediti va lizing asosida bosqichma-bosqich tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda Agentlik faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritsin.

9. Agentlik:

a) Qishloq xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-dekabr qadar favqulodda vaziyatlarda zararkunandalarga qarshi kurashish hamda hosilni saqlab qolishni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash tartibini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

b) olti oy muddatda "O'simliklar karantini to'g'risida"gi va "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalardan, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar normalarini qayta ko'rib chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tegishli qonun loyihasini kiritsin;

v) joriy yil yakuniga qadar mineral o'g'it va kimyoviy vositalar importi, ulgurji va chakana savdo faoliyatini litsenziyalanadigan faoliyat turlari ro'yxatiga belgilangan tartibda kiritish choralari ko'rsin;

g) joriy yil yakuniga qadar:

xususiy sektorda o'simliklar himoyasi sohasida xizmat ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslarning xodimlarini sertifikatlash;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ayrim kimyoviy vositalarni agronom-inspektorning tavsiyasi va retsepti asosida yerdan foydalanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida sotish tartibini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

10. Ushbu Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida:

a) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.B. Xusanov) Agentlik bilan birgalikda zararli organizmlarga qarshi kurash tadbirlarini amalga oshirishda agronom, fitopatolog, entomolog, ximbiolog bo'lgan mutaxassislarni ish bilan ta'minlash maqsadida ularni o'qitish va malakasini oshirish orqali o'simliklar klinikalari faoliyatini tashkil etish tartibiga muvofiq, o'simliklar klinikalari va biolaboratoriyalarga jalb qilish tizimini shakllantirsin;

b) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh.M. Sadikov) Agentlikning "e-Fitouz" avtomatlashtirilgan axborot tizimini yanada keng joriy qilish maqsadida sohaga oid barcha faoliyatni ushbu tizimga integratsiya qilishda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

v) Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (B.Q. Yusupaliyev) qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida zararli moddalarning (pestitsidlar, mikotoksinlar, nitratlar, toksik elementlar, mineral o'g'itlar va boshqalar) miqdorini belgilash va ularning xavfsizligiga qo'yiladigan talablarni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirsin.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mazkur Farmonda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, yangi tizimni samarali tashkil etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi "Yo'l xaritalari"ni tasdiqlasin va unda belgilangan vazifalarning o'z vaqtida, to'liq hajmda va sifatli bajarilishi uchun shaxsan mas'ul ekanliklari ko'rsatib o'tilsin.

12. Agentlik Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda:

Farmonning maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish ishlarini tashkillashtirsin;

o'simliklarni himoya qilish sohasidagi tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida televideniye orqali ko'rsatuvlarni doimiy namoyish qilsin hamda ijtimoiy reklama sifatida ularni televideniye va radiokanallarda joylashtirsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga [3-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

14. Agentlik manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib

chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktori, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o'rinbosari Sh.M. G'aniyev zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi to'g'risida 2021-yilning 31-dekabr kuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 15-iyul,  
PF-6262-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son [Farmoniga](#)  
1-ILOVA

### **“O'zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya” AJlarni tugatish bo'yicha Respublika komissiyasi**

#### **TARKIBI**

1. Sh. G'aniyev — Bosh vazir o'rinbosari, *Komissiya raisi*
2. A. Ortiqov — Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori, *Komissiya raisining o'rinbosari*
3. Sh. Umurov — “O'zagrokimyohimoya” AJ raisi v.v.b. *komissiya raisining o'rinbosari*
4. Sh. Raximov — Bosh prokuror o'rinbosari
5. O. Nasritdinxodjayev — moliya vazirining birinchi o'rinbosari
6. I. Norqulov — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirining birinchi o'rinbosari
7. S. Nishanbayev — ichki ishlar vaziri o'rinbosari
8. X. Meliyev — adliya vaziri o'rinbosari
9. Sh. Teshayev — qishloq xo'jaligi vazirining birinchi o'rinbosari
10. A. Fayzibayev — Davlat soliq qo'mitasi raisi o'rinbosari
11. X. Sadiqov — Hisob palatasi bosh inspektori
12. Lavozimi bo'yicha — O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktorining iqtisod bo'yicha o'rinbosari
13. O. Omonov — Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat departamenti direktori o'rinbosari
14. K. Maqsudov — “O'zagrokimyohimoya” AJ bo'lim boshlig'i, *Komissiya kotibi*

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalar yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son [Farmoniga](#)  
2-ILOVA

## **“O‘zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya” AJlarni tugatish bo‘yicha hududiy komissiyalarining NAMUNAVIY TARKIBI**

1. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar bo‘yicha hokimlari, *Hududiy komissiya rahbari*
2. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyat bo‘yicha hokimlarining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, *Hududiy komissiya rahbari o‘rinbosari*
3. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar prokurorlari o‘rinbosarlari bo‘yicha
4. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirining o‘rinbosari, viloyat bo‘yicha hokimliklari moliya bosh boshqarmalarining boshliqlari
5. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni bo‘yicha qisqartirish vazirining o‘rinbosari, viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmalari boshliqlari
6. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmasi bo‘yicha boshlig‘ining o‘rinbosari — Jamoat xavfsizligi xizmati boshliqlari
7. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirining o‘rinbosari va viloyatlar bo‘yicha Adliya boshqarmalari boshliqlari
8. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar qishloq xo‘jaligi hududiy bo‘yicha boshqarmasi boshliqlari
9. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar Davlat soliq boshqarmalari bo‘yicha boshliqlari
10. Lavozimi — Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, bo‘yicha viloyatlar boshqarmalari boshliqlari
11. Lavozimi — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bo‘yicha departamentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar boshqarmalari boshliqlari
12. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha agentligining, viloyatlar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari boshliqlari
13. Lavozimi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hududiy “Agrokimyohimoya” bo‘yicha hududiy AJlarning raislari, *hududiy komissiya kotibi*

Izoh: Hududiy komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalar yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-  
son [Farmoniga](#)  
3-ILOVA

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabrda “Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-3358-son Farmoniga [ilovaning](#):

[III bo‘limi](#) quyidagi mazmundagi 11-band bilan to‘ldirilsin:

“11. O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi”;

VI bo‘limidan [10-bandi](#) chiqarib tashlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5490-son Farmoniga [2-ilovaning](#) 12-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

12.	O‘simlik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash, sotish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilish hamda o‘simliklar karantini bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilishi ustidan nazorat qilish.	O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi	1 kun
-----	--	--	-------

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 24-oktabrdagi “O‘simliklarni himoya qilish va qishloq xo‘jaligiga agrokimyoviy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2640-son [qarori](#) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-fevraldagi PQ-2800-son “O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining formal kiyim-boshlarini ishlab chiqish, standartlashtirish, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga [1-ilovaning](#) “Idoraviy formal kiyim” bo‘limidagi 7-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 30-avgustdagi PQ-3249-son [qarori](#) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-fevraldagi “Paxta xomashyosi va boshoqli don yetishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3574-son qaroriga 8-bandning [uchinchi xatboshisidagi](#) “100 milliard” so‘zlari “50 milliard” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-martdagi “O‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati faoliyatining samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3626-son [qarori](#) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “O‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4861-son qarorining [1, 3, 4, 5, 6, 6a](#) va [8-ilovalari](#) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4975-son qaroriga [1-ilovadagi](#) “O‘simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti” bloki chiqarib tashlansin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

*(10-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-iyundagi PF-90-sonli [Farmoniga](#) asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.06.2023-y., 06/23/90/0352-son)*

*(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.07.2021-y., 06/21/6262/0680-son, 16.12.2021-y., 06/21/34/1164-son; 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son; 29.03.2023-y., 06/23/42/0177-son; 12.06.2023-y., 06/23/90/0352-son)*

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

### **RESPUBLIKADA O‘SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘simliklar karantini va himoyasi boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, fitosanitar va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalarni yetkazib berish va xizmat ko‘rsatish tizimini to‘liq xususiy sektorga o‘tkazish, tashqi bozorda mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish, mineral o‘g‘itlar va agrokimyoviy xizmatlar sifatini oshirish maqsadida:

1. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi tashkil etilsin.

2. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, “O‘zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya” AJlar aksiyadorlarining:

“O‘zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya” AJlar;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Kimyolashtirish va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini sinovdan o‘tkazish va ro‘yxatga olish bo‘yicha davlat komissiyasini tugatish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin;

“O‘zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya” AJlarni tugatish bo‘yicha Respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Tugatish komissiyasi) tarkibi [1-ilovaga](#) muvofiq va uning hududiy komissiyalarining (keyingi o‘rinlarda — hududiy komissiya) namunaviy tarkibi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)



### 3. Tugatish komissiyasi raisi:

“O‘zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya” AJlar debitor va kreditor qarzdorliklarini belgilangan tartibda xatlovdan o‘tkazib, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirsin;

“O‘zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya” AJlar mol-mulklari va asosiy vositalarini xatlovdan o‘tkazib, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) o‘tkazish yoki belgilangan tartibda sotish choralari ko‘rsin. Bunda, Agentlikka beriladigan mol-mulklarning baholangan qiymatiga mos ravishda hududiy “Agrokimyohimoya” AJlarning budget, davlat maqsadli jamg‘armalari va ajratilgan budget ssudasi bo‘yicha qarzdorliklari hisobdan chiqariladi hamda ushbu mol-mulklar daromad (foyda) solig‘ini hisoblashda soliq solish obyekti hisoblanmaydi;

mol-mulk va texnikalar talon-toroj qilinishining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rib borsin.

*(3-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PF-42-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.03.2023-y., 06/23/42/0177-son)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

4. O‘simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o‘tlarga qarshi kurashda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ushbu yo‘nalishda zarur ishlov berish texnikalari, agrometeostansiyalar, biolaboratoriya jihozlari va boshqa uskunalar xarid qilinishda davlat tomonidan 2024-yil 31-dekabr qadar qo‘llab-quvvatlashning quyidagi tartibi joriy qilinsin:

*(4-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-dekabr dagi PF-34-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.12.2021-y., 06/21/34/1164-son)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

a) Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo‘yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etiladi;

*(4-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son — 2022-yil 1-iyuldan kuchga kiradi)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

b) ajratiladigan kredit ta'minotining 50 foizigacha (50 foizi ham kiradi), biroq 2,5 mlrd so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi kafillik taqdim etadi.

*(4-bandining "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son — 2022-yil 1-iyuldan kuchga kiradi)*

5. Quyidagilar "Agrobank" ATB tomonidan:

o'simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga laboratoriyalarni tashkil etish, uskuna va texnikalarni sotib olish hamda aylanma mablag'lari uchun 200 mlrd so'mlik kredit liniyasi ochilganligi;

Qishloq xo'jaligi yo'nalishida, shu jumladan o'simliklarni himoya qilish sohasida ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, mutaxassislar va aholining bilim darajasini oshirish maqsadida "Agrobank" ATB qoshida "Fermierlar maktabi" tashkil etilganligi;

O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti va sohadagi izlanuvchilarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi innovatsion tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilganlik uchun 10 mlrd so'm miqdorida grant ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. Toshkent viloyati hokimligi va "Agrobank" ATBning Toshkent viloyatida o'simliklarni himoya qilishning kompleks xizmatlarini ko'rsatuvchi markazni (keyingi o'rinlarda — Namunaviy markaz) tashkil etish bo'yicha buyurtmachi etib "Agrobank" ATBni belgilash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari zimmasiga "Agrobank" ATB bilan birgalikda Namunaviy markaz tajribasi asosida tadbirkorlarning o'simliklarni himoya qilishning kompleks xizmatlarini ko'rsatuvchi biznes loyihalarini tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, bank krediti va lizing asosida bosqichma-bosqich tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda Agentlik faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyhasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritsin.

9. Agentlik:

a) Qishloq xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-dekabrga qadar favqulodda vaziyatlarda zararkunandalarga qarshi kurashish hamda hosilni saqlab qolishni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash tartibini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

b) olti oy muddatda “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi va “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar normalarini qayta ko‘rib chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tegishli qonun loyihasini kiritсин;

v) joriy yil yakuniga qadar mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalar importi, ulgurji va chakana savdo faoliyatini litsenziyalanadigan faoliyat turlari ro‘yxatiga belgilangan tartibda kiritish choralari ko‘rsin;

g) joriy yil yakuniga qadar:

xususiy sektorda o‘simliklar himoyasi sohasida xizmat ko‘rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslarning xodimlarini sertifikatlash;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ayrim kimyoviy vositalarni agronom-inspektorning tavsiyasi va retsepti asosida yerdan foydalanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida sotish tartibini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

10. Ushbu Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida:

a) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.B. Xusanov) Agentlik bilan birgalikda zararli organizmlarga qarshi kurash tadbirlarini amalga oshirishda agronom, fitopatolog, entomolog, ximbiolog bo‘lgan mutaxassislarni ish bilan ta‘minlash maqsadida ularni o‘qitish va malakasini oshirish orqali o‘simliklar klinikalari faoliyatini tashkil etish tartibiga muvofiq, o‘simliklar klinikalari va biolaboratoriyalarga jalb qilish tizimini shakllantirсин;

b) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh.M. Sadikov) Agentlikning “e-Fitouz” avtomatlashtirilgan axborot tizimini yanada keng joriy qilish maqsadida sohaga oid barcha faoliyatni ushbu tizimga integratsiya qilishda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirсин;

v) Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (B.Q. Yusupaliyev) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida zararli moddalarning (pestitsidlar, mikotoksinlar, nitratlar, toksik elementlar, mineral o‘g‘itlar va boshqalar) miqdorini belgilash va ularning xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirсин.

11. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mazkur Farmonda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, yangi tizimni samarali tashkil etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi “Yo‘l xaritalari”ni tasdiqlasin va unda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida, to‘liq hajmda va sifatli bajarilishi uchun shaxsan mas‘ul ekanliklari ko‘rsatib o‘tilsin.

12. Agentlik Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda:

Farmonning maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish ishlarini tashkillashtirsin;

o'simliklarni himoya qilish sohasidagi tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida televideniye orqali ko'rsatuvlarni doimiy namoyish qilsin hamda ijtimoiy reklama sifatida ularni televideniye va radiokanallarda joylashtirsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga [3-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

14. Agentlik manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktori, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o'rinbosari Sh.M. G'aniyev zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi to'g'risida 2021-yilning 31-dekabr kuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 15-iyul,  
PF-6262-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son [Farmoniga](#)

1-ILOVA

**“O'zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya”  
AJlarni tugatish bo'yicha Respublika komissiyasi**

TARKIBI

1. Sh. G'aniyev — Bosh vazir o'rinbosari, *Komissiya raisi*
2. A. Ortiqov — Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori, *Komissiya raisining o'rinbosari*
3. Sh. Umurov — “O'zagrokimyohimoya” AJ raisi v.v.b. *komissiya raisining o'rinbosari*
4. Sh. Raximov — Bosh prokuror o'rinbosari
5. O. Nasritdinxodjayev — moliya vazirining birinchi o'rinbosari
6. I. Norqulov — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirining birinchi o'rinbosari
7. S. Nishanbayev — ichki ishlar vaziri o'rinbosari

8. X. Meliyev — adliya vaziri o‘rinbosari
9. Sh. Teshayev — qishloq xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari
10. A. Fayzibayev — Davlat soliq qo‘mitasi raisi o‘rinbosari
11. X. Sadiqov — Hisob palatasi bosh inspektori
12. Lavozimi bo‘yicha — O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktorining iqtisod bo‘yicha o‘rinbosari
13. O. Omonov — Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat departamenti direktori o‘rinbosari
14. K. Maqsudov — “O‘zagrokimyohimoya” AJ bo‘lim boshlig‘i, *Komissiya kotibi*

Izoh: Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalar yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son [Farmoniga](#)  
2-ILOVA

### **“O‘zagrokimyohimoya” AJ va hududiy “Agrokimyohimoya” AJlarni tugatish bo‘yicha hududiy komissiyalarining NAMUNAVIY TARKIBI**

1. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar hokimlari, *Hududiy komissiya rahbari*
2. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyat hokimlarining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, *Hududiy komissiya rahbari o‘rinbosari*
3. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar prokurorlari o‘rinbosarlari
4. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirining o‘rinbosari, viloyat hokimliklari moliya bosh boshqarmalarining boshliqlari
5. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining o‘rinbosari, viloyatlar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmalari boshliqlari
6. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari — Jamoat xavfsizligi xizmati boshliqlari
7. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirining o‘rinbosari va viloyatlar Adliya boshqarmalari boshliqlari
8. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar qishloq xo‘jaligi hududiy boshqarmasi boshliqlari
9. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar Davlat soliq boshqarmalari boshliqlari
10. Lavozimi bo‘yicha — Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar boshqarmalari boshliqlari
11. Lavozimi bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat departamentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar boshqarmalari boshliqlari
12. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining, viloyatlar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari boshliqlari
13. Lavozimi bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hududiy “Agrokimyohimoya” hududiy AJlarning raislari, *hududiy komissiya kotibi*

Izoh: Hududiy komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalar yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son [Farmoniga](#)  
3-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabrda “Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-3358-son Farmoniga [ilovaning](#):  
[III bo‘limi](#) quyidagi mazmundagi 11-band bilan to‘ldirilsin:

“11. O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi”;

VI bo‘limidan [10-bandi](#) chiqarib tashlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5490-son Farmoniga [2-ilovaning](#) 12-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ 12.	O‘simlik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash, sotish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilish hamda o‘simliklar karantini bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilishi ustidan nazorat qilish.	O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi	1 kun	”.
-------	--	--	-------	----

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 24-oktabrdagi “O‘simliklarni himoya qilish va qishloq xo‘jaligiga agrokimyoviy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2640-son [qarori](#) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-fevraldagi PQ-2800-son “O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va tashkilotlarining formal kiyim-boshlarini ishlab chiqish, standartlashtirish, tasdiqlash va tayyorlash mexanizmini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga [1-ilovaning](#) “Idoraviy formal kiyim” bo‘limidagi 7-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 30-avgustdagi PQ-3249-son [qarori](#) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-fevraldagi “Paxta xomashyosi va boshqoli don yetishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3574-son qaroriga 8-bandning [uchinchi xatboshisidagi](#) “100 milliard” so‘zlari “50 milliard” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-martdagi "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatining samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3626-son [qarori](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4861-son qarorining [1](#), [3](#), [4](#), [5](#), [6](#), [6a](#) va [8-ilovalari](#) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4975-son qaroriga [1-ilovadagi](#) "O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti" bloki chiqarib tashlansin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

*(10-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-iyundagi PF-90-sonli [Farmoniga](#) asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.06.2023-y., 06/23/90/0352-son)*

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.07.2021-y., 06/21/6262/0680-son, 16.12.2021-y., 06/21/34/1164-son; 10.06.2022-y., 06/22/150/0516-son; 29.03.2023-y., 06/23/42/0177-son; 12.06.2023-y., 06/23/90/0352-son)*